

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Xorijiy til (ingliz tili)ni o‘rgatishda zamonaviy metodlardan foydalanish usullari

*Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali
Umumiy fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasи o'qituvchisi
Rustamov Alijon Amonkulovich*

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy tillarni o,,qitishda interfaol metodlarga e`tibor qaratilib, ta`lim samaradorligini oshirishda ulardan foydalanishning muhim jihatlari yoritildi.

Kalit so‘zlar: chet tili, sub`ekt, CEFR, “Pantomima”, “Quvnoq topishmoqlar”, innovatsion, “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet”.

Аннотация: В данной статье уделено внимание интерактивным методам обучения иностранным языкам, а также выделены важные аспекты их использования в повышении эффективности образования.

Ключевые слова: иностранный язык, предмет, ЦЭФР, `Пантомима`, `Веселые загадки`, инновационный, `Переводчик`, `Переводчик`, `Писатель`, `Поэт`.

Abstract: This article pays attention to interactive methods of teaching foreign languages, and also highlights important aspects of their use in increasing the effectiveness of education.

Key words: foreign language, subject, CEFR, “Pantomime”, “Funny Riddles”, innovative, “Translator”, “Translator”, “Writer”, “Poet”.

Hozirgi davr ta`lim taraqqiyoti yangi yo`nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion – inglizcha “yangilikni kiritish (tarqatish)” ma`nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo`lgan munosabati va boshqalarni o`rgangan. Ilmiy yo`nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o`zaro

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

farqalanadi. “Yangilik”- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma`nosini anglatadi. “Innovatsiya”- bu ta`lim, ma`lum bosqichlari bo`yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Juhon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlananib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o`z ta`sirini o`tkazdi. Ilm dunyomizga ilg`or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Buning ijrosi sifatida, Yurtboshimiz tomonidan joriy yilni “Yoshlarni qo`llab-quvvatlash va aholi salomatligi yili” deb nomlashi ham mamlakatimiz yoshlarinining ma`suliyatini yanada oshirdi. Ta`lim sohalariga ilg`or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o`rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo`lmaydi.

Tadqiqot jarayonida ingliz tilini o`rgatish va o`rganishning mashhur usullaridan, internet manbalaridan foydalanildi. Maqolani yozish davomida nazariydeduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi.

Chet til o`qitish metodi – deyilganda chet til o`rgatishning amaliy, umumta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta`minlovchi muallim va o`quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi “ta`lim usullari yig`indisi” va “ta`limning yo`nalishi” ma`nolarida qo`llanadi. Birinchisi ta`lim nazariyasida jarayon metodlar ma`nosida ishlatsa, ikkinchi ma`noda uni o`qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o`qitishning tarjima metodi, tog`ri metod, ongli- qiyosiy metod, an`anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.

Biz bilamizki, hozirgi ta`lim jarayonida o`quvchi sub`ekt bo`lishi lozim. Bunda ko`proq interfaol metodlarga e`tiborni qaratish ta`lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo`yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o`rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o`qituvchilari Amerika Qo`shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

“Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo`llash uchun hikoyaning boshlanishi o`qib beriladi qanday yakun topishi o`quvchilar,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

talabalar hukmiga havola qilinadi;

“Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o`quvchilarga topishmoqlar o`rgatish Ingliz tilini o`rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o`zlariga notanish bo`lgan so`zlarni o`rganadilar va o`ylab topishmoq javobini topadilar;

“Tezkor javob” (Quick answers) o`tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; .

“Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o`quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o`yinlardan foydalanish;

“Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo`lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalansha bo`ladi;

“Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o`quvchilarning og`zaki nutqini o`stirishda yordam beradi;

“Rolli o`yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo`llanilishi mumkin.

Hunarga o`rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o`quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;

“Allomalar yig`ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so`zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo`lib tarbiyalanishiga yordam beradi; “Rasmlar so`zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo`lib, ingliz tilini o`rgatishda, talaba, o`quvchilarning og`zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim; Kviz kartochkalari (quiz cards) o`quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtida darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqt ni tejaydi.

Chet til o`rganish ko`p qirrali ta`limot bo`lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o`zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o`rgatishning turli metod va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o`rgatish samarali natija beradi. Chet til o`rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo`lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o`rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o`qitish metodikasida keng qo`llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilanchambarchas bog`liq va bir-birini to`ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog`liq bo`lganligi sababli, chet til o`rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi.

REFERENCES

1. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O`zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o`rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi.
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.
3. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).
4. Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o`zbek tilida ifodalanishi. Science and Education, 1(Special Issue 4).
5. Журабоев, Б. (2020). Мотивированные люди для удовлетворения своих собственных потребностей. Academic research in educational sciences, (3).
6. Juraboyev, B. B. U. (2021). Problems and solutions for online teaching and learning of foreign languages. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 2).